

“DAVLAT AKTIVI” VA “DAVLAT MULKI” TUSHUNCHALARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Nuraliyeva Nilufar Rustamovna

O‘quv bo‘lim boshlig‘i, mustaqil izlanuvchi

Toshkent shahridagi Turin politexnika

universiteti akademik litseyi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “davlat aktivi” va “davlat mulki” tushunchalarining iqtisodiy-huquqiy mohiyati, ularning o‘zaro farqlari hamda o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat aktivlarini boshqarish tizimi, xalqaro tajribalar va O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar misolida davlat aktivlarini samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat aktivi, davlat mulki, boshqaruv, iqtisodiy islohotlar, xususiylashtirish, samaradorlik, davlat aktivlarini boshqarish agentligi.

THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPTS OF “STATE ASSET” AND “STATE PROPERTY”

Nuralieva Nilufar Rustamovna

Head of the Academic Department, independent researcher

Academic Lyceum of Turin Polytechnic

University in Tashkent

Annotation. This article analyzes the economic and legal essence of the concepts of “state asset” and “state property,” their differences, and their interrelation. It also highlights the theoretical and practical aspects of effective management of state assets through the example of the management system, international experience, and the reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: state asset, state property, management, economic reforms, privatization, efficiency, Agency for Management of State Assets.

Kirish

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan har qanday davlatda mulkchilik shakllarining xilma-xilligi iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikning muhim omili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, davlat mulkini isloh qilish, uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda davlat aktivlaridan oqilona foydalanish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. So'nggi yillarda mamlakatimizda "davlat aktivi" tushunchasi faol qo'llanila boshladi. Bu atama "davlat mulki" tushunchasidan kengroq bo'lib, davlatning iqtisodiy manfaatlarini ifodalovchi real yoki moliyaviy qiymatga ega ob'yektlarni anglatadi.

Davlat aktivi tushunchasining iqtisodiy-huquqiy mohiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, **davlat aktivi** — bu davlatga tegishli bo'lgan va iqtisodiy qiymatga ega, foyda keltiruvchi yoki iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi resurslar majmui. Bular tarkibiga aksiyalar, obligatsiyalar, davlat korxonalari, yer va ko'chmas mulk, intellektual mulk, hamda davlatning moliyaviy ulushlari kiradi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, davlat aktivlari — bu davlat balansida qayd etilgan, milliy boylikning bir qismi bo'lib, ularning samarali boshqarilishi byudjet daromadlarini oshiradi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Davlat mulki tushunchasini mohiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, **davlat mulki** — bu davlat nomidan egalik qilinadigan, foydalaniladigan va tasarruf etiladigan barcha moddiy va nomoddiy boyliklar yig'indisidir. U quyidagi turlarga bo'linadi: Respublika mulki, mahalliy davlat mulki. Davlat mulkiga ishlab chiqarish korxonalari, transport vositalari, tabiiy resurslar, yer, suv, o'rmonlar, davlat zaxiralari, shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalari, patent va litsenziyalar kiradi.

Ushbu ikki tushuncha ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi, biroq ular o'rtasida aniq farq mavjud: davlat aktivi — iqtisodiy qiymatga ega, foyda keltiruvchi resurs, davlat mulki — barcha moddiy va nomoddiy boyliklarni o'z ichiga oladi.

"Davlat aktivlari" tushunchasi kengroq bo'lib, u nafaqat moddiy davlat mulkini, balki qiymatga ega bo'lgan boshqa aktivlarni ham o'z ichiga oladi, masalan: moliyaviy mablag'lar, kompaniyalardagi ulushlar va mulkiy huquqlar. Davlat mulki esa davlat aktivlarining bir qismi bo'lib, davlat egaligidagi moddiy ob'yektlarni — yer, bino, transport vositalari hamda tabiiy resurslarni ifodalaydi.

Davlat aktivlari kengroq tushuncha: qiymatga ega va daromad keltirishi mumkin bo'lgan barcha davlat resurslarini o'z ichiga oladi. Tarkibi:

- Moliyaviy mablag'lar (pul, qimmatli qog'ozlar).
- Aksiyadorlik jamiyatlaridagi ulushlar va aksiyalar.

- Intellektual mulkka bo'lgan huquqlar.
- Nomoddiy aktivlar.

Aktivlarni boshqarishning maqsadi — iqtisodiy foyda olish va davlat funksiyalarini samarali ta'minlashdir.

Davlat mulki torroq tushuncha: davlat aktivlarining bir qismi bo'lib, moddiy obyektlarga taalluqlidir. Tarkibi:

- Ko'chmas mulk (yer, binolar, inshootlar).
- Ko'char mulk (transport vositalari, uskuna va jihozlar).
- Tabiiy resurslar.
- Infratuzilma obyektlari.

Davlat ehtiyojlari uchun foydalaniladi — mudofaa, ta'lim, sog'liqni saqlash, boshqaruv va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohalarida.

Taqqoslash uchun misol. Tasavvur qiling, davlat zavodga egalik qiladi. Zavodning o'zi (binolar, stanoklar, uskuna va jihozlar) — bu davlat mulki. Ammo shu zavodning davlat aktivlari tarkibiga nafaqat zavodning o'zi, balki uning bank hisoblaridagi mablag'lari, texnologiyalarga oid patentlari, boshqa kompaniyalardagi aksiyalari ham kiradi. Shu barcha elementlar yig'indisi zavodning umumiy aktivlarini tashkil etadi.

Hozirda, O'zbekiston Respublikasi miqiyosida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi PQ–4126-son qarori asosida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tashkil etilgan bo'lib, u davlat ulushlari va korxonalardagi aksiyalarni boshqarish, davlat ishtirokidagi korxonalarning samaradorligini oshirish, shuningdek, xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Bugungi kunga kelib, 2020–2024-yillar davomida 600 dan ortiq korxona va ob'ektlar xususiy sektorga o'tkazildi. Bu esa byudjetga milliardlab so'mlik tushum keltirdi va iqtisodiyotda raqobatni kuchaytirdi.

Mamlakatimiz so'nggi yillarda “Davlatdan xususiy sektorga o'tish” tamoyilini izchil amalga oshirmoqda. 2023-yilda davlat ishtirokidagi 540 ta korxona restrukturizatsiya qilindi, 300 ga yaqin ob'yekt xususiylashtirildi. Bundan tashqari, davlat aktivlarini elektron auksion orqali sotish tizimi yo'lga qo'yildi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, davlat aktivi va davlat mulki tushunchalari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Davlat mulki davlatning asosiy iqtisodiy bazasini yaratadi, davlat aktivlari esa ushbu bazani samarali boshqarish va rivojlantirish vositasi

hisoblanadi. Shuning uchun ham davlat aktivlarini boshqarish sohasida institutsional va huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 20-aprel). – Toshkent.
2. “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun, 2015-yil 16-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi PF–5630-son Farmoni.
4. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi rasmiy veb-sayti: www.davaktiv.uz
5. Tursunov X., Xo‘jayev A. Davlat mulki iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
6. World Bank. “Public Asset Management in Transition Economies”. – Washington, 2022.